



UDK:1.124.14.124.1.141

Mavjuda SOIPOVA,

Farg'ona davlat universiteti falsafa va milliy g'oya kafedrası dotsenti, PhD

Buxoro davlat universiteti professori E.Zoirov taqrizi asosida

FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA INSON BORLIG'I MASALASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Fazl ibn Ahmadning ilmiy ijodi va xayoti falsafiy tahlili xaqida ma'lumotlar berilgan. Iddatul uqul va umdatul ma'qul (Aqlarning va'da berishi va aqlarga ma'qul narsalarning asosi) asarida nafsning abadiyligi haqida fikrlar keltirilgan. Yangi O'zbekistonni barpo etishda Rumi ta'limoti, ayniqsa, Fazl ibn Ahmad g'oyalari bilan bugungi murakkab zamonda yoshlarni ruhiy barkamol insonlar etib tarbiyalash, ma'naviy jihatdan yuksaltirish muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda Fazl ibn Ahmadning Iddatul uqul va umdatul ma'qul (Aqlarning va'da berishi va aqlarga ma'qul narsalarning asosi) risolasidan samarali foydalanish ijtimoiy taraqqiyotda, jamiyat farovonligida va inson ehtiyojlarini qondirilishida ustuvorligi yoritilgan.

Kalit so'zla: Islom, ijtimoiy ilm, nafs, taraqqiyot, inson dialektik, sinergetik, deterministik, ma'naviy milliy va umuminsoniy manfaatlar, progressiv taraqqiyot, axloqiy qadriyatlar, estetik, siyosiy, huquqiy, demokratik.

ВОПРОС ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО БЫТИЯ В УЧЕНИИ ФАЗЛА ИБН АХМАДА

Аннотация

В данной статье представлены сведения о научном наследии и философском анализе жизни Фазла ибн Ахмада. В его произведениях «Иддат аль-Укуль» (Обещание разумов) и «Умдат аль-Маъкуль» (Основа разумного) изложены идеи о вечности души. В процессе построения Нового Узбекистана учение Руми и, в особенности, идеи Фазла ибн Ахмада приобретают особое значение в воспитании духовно зрелой молодежи и повышении их нравственного уровня в условиях современного сложного мира. Подчеркнута актуальность эффективного использования трактатов Фазла ибн Ахмада «Иддат аль-Укуль» и «Умдат аль-Маъкуль» в обеспечении социального прогресса, благосостояния общества и удовлетворения человеческих потребностей.

Ключевые слова: Ислам, социальная наука, душа (нафс), развитие, человек, диалектический, синергетический, детерминистский, духовный, национальные и общечеловеческие интересы, прогрессивное развитие, нравственные ценности, эстетика, политика, право, демократия.

THE ISSUE OF HUMAN EXISTENCE IN THE TEACHINGS OF FAZL IBN AHMAD

Abstract

This article provides information about the philosophical analysis of Fazl ibn Ahmad's scientific legacy and life. In his works "Iddat al-Uqul" (The Promise of Intellects) and "Umdat al-Ma'qul" (The Foundation of Rational Matters), the idea of the immortality of the soul is discussed. In building the New Uzbekistan, the teachings of Rumi — and especially the ideas of Fazl ibn Ahmad — play an important role in educating spiritually mature youth and elevating their moral development in today's complex era. The effective use of Fazl ibn Ahmad's treatises "Iddat al-Uqul" and "Umdat al-Ma'qul" is highlighted as a priority in ensuring social progress, societal welfare, and the fulfillment of human needs.

Key words: Islam, social science, soul (nafs), development, human being, dialectical, synergetic, deterministic, spiritual, national and universal interests, progressive development, moral values, aesthetic, political, legal, democratic.

Kirish. Fazl ibn Ahmad nafsning abadiyligini quyidagicha falsafiy tahlil qiladi:

این فصلی است از کلام حکیم در اثبات جوهریت نفس و صفات او و کیفیت ادراک او مر موجودات را و معرفت او حقایق اشیا را و اثبات بقای او بعد از مفارقت این جسم کونی که در تحت تصرف اوست و حکم [1] علاقته که میان ایشان است.

Mazmuni: Nafs jism kabi halok bo'lmaydi. Jism moddiy bo'lib, o'limga mahkum bo'lsa-da, nafs ma'naviy javhar bo'lgani sababli, o'limdan keyin ham mavjud bo'lishda davom etadi. Bu uning abadiyligi va ma'naviy kamolotini isbotlaydi.

Ar-Roziyning fikricha, ruh xudo, hayulo va zamon kabi azaliydir. Roziy xudoning va ruhning azaliyligiga hech bir dalil keltirmaydi. Ammo bu jahonning zamonda yaratilganligini va uning foniyligini tan oladi[2]. Aflotun esa, uning yaratilganligini, ammo abadiyligini tan oladi.

Shunga binoan, qayd etish lozimki, Roziy Aflotun kabi ruhning va xudoning azaliyligini o'z-o'zidan oshkora hodisa hisoblaydi. Azaliymi, abadiymi bo'lishidan qat'iy nazar ruhning borligi va uning jism bandligidan ozod bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning o'rni shu bilan belgilanmasdan, bunda falsafaning ham ruhni toza tutishda belgilovchi xususiyati borligini ta'kidlaydi[3].

Demak, Fazl ibn Ahmad nafsning javhariy mohiyatini va uning jismga nisbatan ustunligini ko'rsatib beradi. Nafs jismga bog'liq bo'lmagan, abadiy va ma'naviy mohiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi.

Mutafakkir ta'limotida nafsning jism bilan birikishining qanday ekanligi savol tariqasida berib o'zi javob berishga harakat qiladi.

اگر کسی پرسد که حدوث نفس با جسم چگونه باشد؟ گوییم: لفظ حدوث متضمن دو چیز باشد: یکی محدث و یکی محدث فیه. و این صیغت

سؤال بود. اکنون نفس حادثه باشد و جسم او محدث فيه باشد و سبب فاعلش محدث باشد. و همچنان که جسم او که جهت سبب حدوث اوست درین عالم [4]

Mazmuni: Agar bir kishi savol bersaki, nafsning jism bilan hodis (paydo bo'lganlik) bo'lishi qanday bo'ladi? Javob beramiz: "Hodislik" so'zi ikki narsani o'z ichiga oladi: biri muvjad (yaratilgan), ikkinchisi muvjad fiyh (unda yaratilgan). Savolning shakli aynan shudir. Endilikda, nafs hodisdir, ya'ni yaratilgan, va uning muvjad fiyhi — jismdir. Ularning sababi esa muhdis, ya'ni yaratuvchidir. Shuningdek, jism uning yaratilishiga sabab bo'lsa, nafsning yaratilishi ham shu dunyoda sodir bo'ladi. Matnda "hodislik" tushunchasining ikki qatlamli mazmuni izohlanadi: birinchisi — "muvjad", ya'ni mavjud qilingan, yaratilgan; ikkinchisi — "muvjad fiyh", ya'ni "unda yaratilgan" yoki mavjudlikning zohir bo'lish joyi. Savolning o'zi ham aslida bu ikki jihatni qamrab oladi.

Nafs hodisdir, ya'ni u mavjud bo'lgan (yaratilgan) narsa sifatida qadim emas, balki vaqt mobaynida vujudga kelgan. Uning mavjud bo'lish joyi esa — jism, ya'ni modda, tana hisoblanadi. Boshqacha aytganda, nafs o'z holicha mavjud emas, balki u jismlar orqali vujudga keladi va ular bilan bog'liq holda faoliyat yuritadi. Bu yerda asosiy sabab — muhdis, ya'ni yaratuvchi hisoblanadi. Falsafiy manbalarda muhdis Alloh deb tushuniladi. Ya'ni, ham nafs, ham jism Alloh tomonidan yaratilgan bo'lib, ularning mavjudlik sababi ilohiy iroda va qudratdir. Shu o'rinda matnda ilgari surilgan fikrga ko'ra, jism qanday qilib mavjud bo'lishga sabab bo'la olsa, demak, nafsning ham bu dunyoda yaratilganligi tabiiydir. Yana bir muhim jihat shuki, nafs jism bilan aloqador holda shakllanadi, ya'ni inson hayoti, tana faoliyati bilan bog'liq holda u rivojlanadi va mavjudlik kasb etadi. Bu fikr nafs va jism orasidagi o'zaro aloqadorlikni va birining ikkinchisiz mavjud bo'la olmasligini ko'rsatadi.

Materiallar va metodlar. Azizdin Nasafiyning fikricha, odamlar ushbu tuproq olamida musofirdirlar. Shu jihatdan kim, osmon farishtalarining javhari bo'lmish inson ruhini ulviy olamdan ushbu sifliy (kuyi olam, tuproq olami) olamga komillik talabida yubordilar, toki o'z kamolini hosil etsin. O'z kamolini hosil etganidan so'ng uning qaytishi osmon farishtalarining javharlari tomon bo'lib, ulviy (oliy, yuksak) olamga yuksaladi. Komillikka olot - kurol-vositasiz yetisholmasdi, chunki inson ruhi kulliyot (umumiy) narsalarni bilardi, juz'iyot (xususiy) narsalarni bilmasdi. Tuproq olamidan inson ruhiga bir olot berdilar, tokim juz'iyotni bilib oldi. Kulliyot va juz'iyotga asoslanib, o'z Parvardigorini tanidi. Bu olot jism qolipidir. Odam ruh va jismdan tarkib topgan bo'lib, ruh ulviy olamdan, jism kuyi olamdandir; ruh amr olamidan, jism xalq olamidandir [5].

واین جسم را اصلی باشد و آن ارکان چهارانه است. هم بر این معیار این نفس را اصلی باشد حدوث این نفس الا از او صورت نبیند و تقدیر وجود او که فرع است با عدم این اصل محال باشد هم بر این قیاس که [6] تقدیر جسم بی ارکان چهارانه محال باشد.

Mazmuni: Bu jismning asli bu to'rt unsur — tuproq, suv, havo va olovdir. Xuddi shu qiyosga ko'ra, nafsning ham bir asosi bor. Agar bu asos bo'lmasa, nafs shakllanmasdi. Shuningdek, uning mavjud bo'lishini tasavvur qilish, bu asos mavjud bo'lmaganida, mumkin emasdir. Bu xuddi jismni to'rt unsursiz tasavvur qilish mumkin emasligi kabi. Bu fikrda muallif jism va nafsning mavjudlik asoslari o'rtasida o'xshatish yo'li bilan chuqur falsafiy bog'liqlikni isbotlashga harakat qiladi. Jumladan, jismlarning asl mohiyati to'rt unsur — tuproq, suv, havo va olov — dan tashkil topganligi qadimiy

tabiatshunoslik va metafizik qarashlarga borib taqaladi. Bu elementlar qadim yunon falsafasi, so'ngra islomiy falsafada ham borliqning moddiy asosi sifatida talqin qilingan.

Muallif bu asosdan kelib chiqib, nafsning ham o'z mohiyati yoki asosiy "unsur" mavjud degan fikrni ilgari suradi. Boshqacha aytganda, qanday qilib jism bu to'rt unsurga tayanmasa mavjud bo'la olmasa, nafs ham o'zining ichki asosisiz yoki zaminisiz paydo bo'lishi mumkin emas. Bu asos nima ekanligi aniq ochib berilmasa-da, u ruhiy, ilohiy yoki fitriy mohiyatga ishora qilishi mumkin. Bu esa nafsning jismaniy emas, balki g'ayrimoddiy asosga ega ekani haqida o'ylashga undaydi. Bu fikr shuni ko'rsatadiki, har qanday mavjudotning vujudga kelishi uchun bir asos, tayanch, sabab bo'lishi zarur. Asossiz narsaning mavjud bo'lishi tasavvur etilmaydi. Agar jism to'rt unsurdan tashkil topmasa, u mavjud bo'la olmaydi — bu oddiy haqiqat. Xuddi shunday, nafs ham o'ziga xos ontologik zamin — mavjudlik negizisiz shakllanmaydi, deyilgan. Demak, bu yondashuv nafsni ham jism singari asosli mavjudot sifatida tushunishga undaydi, lekin bu asos moddiy emas, balki g'ayrimoddiy tusga ega bo'lishi mumkin.

Muhokama va natijalar. Inson ruhi o'zig xos bo'lib, bu haqda Ibn Sino quyidagi fikrni keltiradi: "odam shuning uchun mavjudki, unga maqsad bo'ladi. U jamiyatdan tashqari turolmaydi. Yashash vositalarini iqtisod qilish maqsadida o'zini-o'zi cheklaydi, tabiatda o'ziga o'xshagan odamlar bo'lmaganda u halok bo'lishi mumkin edi. Insonning shunday o'ziga xos xususiyati borki, o'sha moddiy olam bilan bog'liq bo'lmagan fikr-g'oyalar bor. shu bilan tirik jonzotlardan farq qiladi" [7].

Fazl ibn Ahmad nafs va jism o'rtasidagi bog'lanish hamda paydo bo'lishni quyidagicha falsafiy tahlil qiladi:

اما آنچه فاعل است اثر فعل او علت تألیف است میان این نفس و این جسم. این معنی در مبدأ فطرت اوست اما حکم عقلی دلیل می کند که وجود جسم از جهت فطرت و تقویت می باید که متقدم باشد بر وجود نفس، به قدمی زمانی به مقدار آنکه هیأت شخص که در نطفه بقوت موجود است [8] از قوت به فعل آید.

Mazmuni: Ammo fe'lining foili bajaruvchisi bo'lgan narsa (ya'ni yaratuvchi)ning ta'siri nafs va jism o'rtasidagi bog'lanishning sababidir. Bu ma'no nafsning fitratida mavjuddir. Lekin aqliy hukm shunga dalil bo'ladiki, jismning mavjudligi fitrati va mustahkamligi jihatidan nafsning mavjudligidan avval bo'lishi kerak, vaqtidagi bir muqaddamlik bilan. Bu muqaddamlik shunday miqdorda bo'ladiki, go'yoki nutfada shaxs shakli kuchda (quvvat imkoni jihatidan) mavjud bo'lib, u kuchdan fe'lga o'tishiga yetgudek bo'ladi. yaratuvchining — ya'ni faol subyektning — ta'siri nafs va jism o'rtasidagi bog'lanishga sabab bo'ladi. Bunda "fe'lining foili" deb aytilayotgan narsa Xoliq — yaratuvchi, sababni yuzaga keltiruvchi kuch sifatida talqin qilinmoqda. Bu ta'sir nafs va jismning o'zaro nisbati, bog'liqligi, hattoki mavjudlikdagi ketma-ketligiga sabab bo'ladigan markaziy omildir. Bu bog'lanishning ildizi nafsning fitratida, ya'ni uning tabiiy yaratilish mohiyatida mavjud. Ya'ni, bu bog'liqlik tashqi emas, balki ichki — mavjudotning o'z tabiati bilan bog'liq bir holatdir. Lekin bu faqat sezgi bilan emas, aql orqali anglanadi. Aynan aqliy hukm, ya'ni mantiqiy xulosa va tahlil orqali shunday haqiqat aniqlanadiki, jism nafsdan ilgari mavjud bo'lishi lozim, chunki u moddiy asoslarga ega va mustahkamlik jihatidan ustunroq.

Demak, insonning avvali (asosi) bir javhar (substansiya, mohiyat)dir va insonda birin-ketin mavjud

bo'ladigan barcha narsalarning hammasi o'sha javharda mavjud bo'lib, ularning har biri (ulg'ayish jarayonida) zohir bo'ladiki a'zolar xoh ichki, xoh tashqi bo'lsin, javhar yoki oraz (tashqi belgilar, aksidensiya) bo'lsin, barchasi nutfada mavjuddir va nutfada insoniy kamolotga kerakli hamma narsa bor, bularning hammasi uning o'zi bilan birga va o'zidan hosil bo'ladigan (xossalar)dir. Inson nutfasi kichik olamning birlamchi javhari (asosi)dir va kichik olamning zoti (o'zligi) hamda urug'idir. Zero, ishq olami kichik olamdir, nutfaga o'z-o'ziga oshiqdir, o'z jamolini ko'rishni, sifatleri, ismlarini mushohada qilishni xohlaydi. (Shu bois) tajalliy etishni istab, fe'l (harakat) sifatini olib, aralash holatga kiradi. Ijmol (yaxlitlik) olamidan tafsil (bo'linish) olamiga o'tishga intiladi va ko'plab suratlar, shakllar, ma'nolar, nurlar ko'rinishida zohir bo'lgisi keladi, toki uning jamoli ko'rinish, sifat va ismlari, fe'l-atvor, xislat-xususiyatlari namoyon bo'ladi.

Naqshbandiya ta'limotida inson haqida ma'lumot berganda shunday yoziladi: "Inson az du chiz mushtamil ast. Yake jism, ki u taalluqi olami xalq va zohiri mavjudot ast va ba makon. G'izoi o' az hamin olam ast. Duyum ruh ast, ki u taalluqi olami Amr ast va o' botini mavjudot budaast. G'izoi onho ham az hamon olam ast"[9]. Mazmuni: Inson ikki narsadan tarkib topgan bir jism bo'lib, u xalq olamidandir. U mavjudotning zohiri-shakli, ko'rinishidir. U makonda mavjud. Uning ozig'i ham shu xalq olamidandir. Ikkinchisi ruh bo'lib, u amr olamidandir. U mavjudotning botinidir. Uning hadi yo'q va ozuqasi ham o'sha olamidandir.

و أن معنى كه در قرآن بدان اشارت می کند: "فَإِذَا سَوَّيْتُهُ وَ نَفَخْتُ فِيهِ مِنْ رُوحِي" یعنی تسویت جسم از قوت به فعل آمدن او باشد و تقدم زمانی در حدوث این هر دو لازم ضروری است و از قرآن این آیت حجت عقلی را تقویت است زیرا كه «فا» در كلام عرب اقتضاء تعقيب كند و «اذا» دلالت بر زمان كند. از اینجا ظاهر سود كه زمان اتصال نفس به جسم متعقب باشد بر زمان حدوث جسم، اما حدوث نفس در حال اقتران او باشد [10] بدین جسم از واهب صور بی واسطه زمان. این در حال مبدأ او باشد.

Mazmuni: Qur'on oyatida shunday ishora qilinadi: "Faiza savvaytuhu va nafaxtu fihi min ruvhiy" (Bas, qachonki uni to'g'rilab bo'lganimda va ichiga O'z ruhmdan puflaganimda) (Hijr: 29). Bu yerda "tasviya" (savvaytuhu) jismning kuchdan amaliy shaklga kelishi ma'nosidadir. Jism va nafsning vujudga kelishida vaqt bo'yicha ustunlik zaruriydir. Qur'on oyati aqliy dalilga qo'shimcha yordam beradi, chunki arab tilidagi "fa" harfi izchillikni talab qiladi va "iz"» zamonni bildiruvchi iboradir.

Bu yerdan ayon bo'ladiki, nafsning jismga bog'lanishi jismning paydo bo'lishidan keyin yuzaga keladi. Lekin nafsning paydo bo'lishi vaqt oralig'isiz jismga bog'langan holda, "vohib as-suvr" (ya'ni surat (shakl)larni ato etuvchi) tomonidan bevosita yuzaga keladi. Bu jarayon nafsning ibtidodagi holatiga tegishlidir.

Xulosa. Demak, inson ko'z bilan ko'riladigan jasaddan va basirat bilan anglanadigan ruh, nafs (jon)dan iborat. Ularning har birida o'ziga xos holat va surat bor. Bu holat va surat chiroyli yoki xunuk bo'lishi mumkin. Basirat bilan anglanadigan jon-ruhning ko'z bilan ko'riladigan jasaddan qadri ulug'dir. Zero, Alloh: "Eslang, Rabbingiz farishtalarga degan edi: "Albatta men loydan bir bashar Yaratguvchidirman. Bas, qachonki, uni rostlab, unga O'z ruhmdan puflaganimdan so'ng, unga sajda qilgan holingizda yiqilingiz!"[11] (Sod, 71-72-oyatlar). Oyatda jasadning loy-tuproqqa, ruhning olamlar Parvardigoriga mansubligi eslatilyapti. Bu o'rinda ruh va nafs(jon) bildirgan ma'no bittadir. Xulq nafs (jon)ga mustahkam o'mashgan hay'at (holat) bo'lib, bu hay'atdan hech bir ikkilanishlarsiz, mashaqqatsiz, o'y-fikrlarga hojat sezilmasdan, osongina fe'llar sodir bo'ladi.

Mutafakkir inson tana va ruhining vazifasini anglashi hamda pok holda saqlab Alloh huzuriga qaytishini ochib beradi.

ADABIYOTLAR

1. فضل بن احمد بن خلف بخاري. عمدة المعقول و عمدة المعقول في ايضاح مباني الاصول. مشهد، چاپ موسسه چاپ و انتشارات آستان قدس رضوی. 1371 ه.ش-1993 م. 92 ص
2. Qarang: Mojed Faxriy. Sayr falsafa dar jahon islom. –B.122. (fors tilida).
3. Beruniyning ta'kidlashicha, Roziy bu masalaga doir "Ibtol ul-nubuvvat" va "Uyub ul-anbiyo" ("Payg'ambarlar aybi") nomli risolalar yozgan: Qarang: Kraus P. Epitre de Beruni. –Paris, 1936. –P. 20.
4. فضل بن احمد بن خلف بخاري. عمدة المعقول و عمدة المعقول في ايضاح مباني الاصول. مشهد، چاپ موسسه چاپ و انتشارات آستان قدس رضوی. 1371 ه.ش-1993 م. 93 ص
5. Aziziddin Nasafiy. Komil inson kitobi. – Toshkent.: G'ofur G'ulom, 2021. – B.48.
6. فضل بن احمد بن خلف بخاري. عمدة المعقول و عمدة المعقول في ايضاح مباني الاصول. مشهد، چاپ موسسه چاپ و انتشارات آستان قدس رضوی. 1371 ه.ش-1993 م. 93 ص
7. Fayzullayev O.Nafs, jon va ruh. – Toshkent.:Akademiya, 2005. – B.39.
8. فضل بن احمد بن خلف بخاري. عمدة المعقول و عمدة المعقول في ايضاح مباني الاصول. مشهد، چاپ موسسه چاپ و انتشارات آستان قدس رضوی. 1371 ه.ش-1993 م. 93 ص
9. Abdurahim Naqshbandiy. Shajarai tayyiba mashoyixi naqshbandiya mujaddidiya. - Chaqvol: 1401 h.y. – 22 b.
10. فضل بن احمد بن خلف بخاري. عمدة المعقول و عمدة المعقول في ايضاح مباني الاصول. مشهد، چاپ موسسه چاپ و انتشارات آستان قدس رضوی. 1371 ه.ش-1993 م. 93 ص
11. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimasi. / Tarjima va izohlar muallifi: Abdulaziz Mansur. – Toshkent: "Toshkent islom universiteti", 2001. – B.457.